

“BOBURNOMA” MATNI BILAN TANISHISHDA IJODIY YONDASHUVLAR

Sayipova Dilafruz Rahimovna

Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi v.b. dotsentui, PhD

dilyasoyipova@gmail.com

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktab ta'limi va maktabdan keyingi ta'limdagi davomiy xususiyatlar, Boburning “Boburnoma” asari matni bilan ishlash usullari, matnga ijodiy yondashuv orqali o'quvchilarda kreativlik va kommunikativlik sifatlarini rivojlantirish kabi masalalar yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** kreativlik, kommunikativlik, nutqiy kompetensiya, uzviylik, dialog, matn, badiiy vosita, og'zaki va yozma nutq.*

ТВОРЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ИЗУЧЕНИЮ ТЕКСТА «БАБУРНАМА»

Сайипова Дилафруз Рахимовна

доцент Самаркандского регионального

центра педагогических навыков

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются такие вопросы, как особенности непрерывного образования в школьном и послешкольном образовании, методы работы с текстом «Бобурномы» Бабура, а также развитие творческих и коммуникативных качеств учащихся посредством творческого подхода к тексту.*

***Ключевые слова:** творчество, коммуникативность, речевая компетентность, связность, диалог, текст, художественные средства, устная и письменная речь.*

CREATIVE APPROACHES IN ACQUISITION OF THE TEXT "BABURNAMA"

Saipova Dilafroz Rakhimovna

Samarkand Regional Pedagogical Skills Center, Associate Professor, Ph.D

Abstract. *This article discusses issues such as the features of continuing education in school and post-school education, methods of working with the text of Babur's "Boburnoma", and the development of creativity and communicative qualities in students through a creative approach to the text.*

Keywords: *creativity, communicativeness, speech competence, coherence, dialogue, text, artistic means, oral and written speech.*

Barcha sohalarda bo'lganidek, ta'lim sohasi ham jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Bugungi kun yoshlari bilimli, zamon bilan hamnafas bo'lib ulg'ayishlarida maktab ta'limi beqiyos ahamiyatga ega, Chunki maktab ta'limi barcha fanlar bo'yicha egallanajak bilimga poydevor qo'yib beradi.

Yoshlarimiz bilimdon va etuk kadr bo'lib etishishlari uchun maktabdan keyingi ta'limni davom ettirishga ehtiyoj bor ekan, maktab va oliy ta'limda o'zaro bog'liqlik, uzviylik va davomiylik bo'lishi va har qanday bilimni egallashda o'quvchida nutqiy kompetensiya yaxshi rivojlanisgan bo'lishi kerak. Nutqiy kompetensiya maktab ta'limida ham, maktabdan keyingi ta'limda ham birday ahamiyatlidir. Chunki tinglab tushunish, o'qib tushunish, o'z fikrlarini og'zaki va yozma shaklda to'g'ri bayon qila olish ko'nikmalarini egallamasdan yangi bilimlarni o'zlashtirish, ta'limda uzviylik va uzluksizlik haqida gap ham bo'lishi mumkin emas.

Ona tili va adabiyot fani aynan shu kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgani bilan xarakterlidir. Ona tili va adabiyot fani yuzasidan mashg'ulotlar o'tganimizda mavzuda berilgan ma'lumotlarni berish, yangi bilimlarni etkazishdan tashqari, o'quvchilarning nutqiy kompetensiya-larini rivojlantirish masalalariga diqqat qaratishimiz zarur.

Buning uchun fanni o'qitish jarayonida aynan shu kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar tizimi ishlab chiqilishi kerak bo'ladi.

O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini izchil rivojlantiruvchi topshiriqlar – qayta hikoya qilish, dialog tuzish, tasviriy bayon, taqqoslash, badiiy vositalarni aniqlash va sharhlash, ijodiy matn yaratish kabi metodlar bu tizimi ishlab chiqishda juda qo'l keladi. Shuningdek, dars jarayonida matn ustida ishlash orqali o'quvchining kommunikativlik va kreativlik ko'nikmalarni rivojlantirish ham mumkin bo'ladi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida til va nutqni rivojlantirish faqat matnni o'qib eslab qolish bilan cheklanmaydi, balki matn asosida tahliliy fikrlash, mustaqil xulosa chiqarish, bayon qilish, munosabat bildirish kabi ko'nikmalarni bosqichma-bosqich shakllantirishni talab etadi.

Adabiyot darslari o'quvchilarning estetik didi, badiiy tafakkuri va nutqiy kompetensiyalarini shakllantiruvchi eng muhim ta'lim jarayonlaridan biridir. Xususan, Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi va uning "Boburnoma" asari o'quvchining til boyligi, tasavvur doirasi, obrazli fikrlashi va nutqiy mahoratini rivojlantirish uchun nihoyatda katta imkoniyatlar yaratadi. Asarda tasvirlangan hayot manzaralari, xalq hayoti, tabiat lavhalari, yumor, lirik satrlar o'quvchini fikrlashga undaydi, badiiy nutqqa yaqinlashtiradi va muloqot madaniyatini rivojlantiradi.

"Boburnoma" o'zining badiiy tabiati, jonli tasvirlari, turmush lavhalari va dialogik unsurlari bilan aynan shu kompetensiyalarni shakllantirish uchun qulay manbadir. Bu asarni o'qitishda ko'pincha matn mazmunini anglashga qaratilgan oddiy topshiriqlar qo'llanadi, biroq o'quvchining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan ijodiy topshiriqlar berishga uncha e'tibor qaratilmaydi. Asar asosida samarali topshiriqlar ishlab chiqish o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun maxsus tuzilgan topshiriqlar tizimi mavjud bo'lmagan taqdirda, o'quvchi matnning badiiy qatlamlarini chuqur tahlil qila olmaydi, fikrni og'zaki va yozma ravishda izchil ifodalashda qiyinchiliklarga duch keladi. Shu nuqtayi nazardan asarni o'qitishda og'zaki va yozma nutqni integratsiyalashgan holda rivojlantirish imkonini beruvchi topshiriqlarni yaratish maqsadga muvofiqdir.

Bunday samarali usullardan biri matnni qayta yaratish asosida ogʻzaki va yozma nutqni birlashtirishdir. “Boburnoma”dagi biror shahar yoki manzilga oid tasvir oʻquvchi tomonidan avval ogʻzaki “rolga kirib hikoya qilish” tarzida qayta aytib beriladi, keyin esa shu voqea asosida kichik yozma lavha – “Men ham shu erda boʻlganman” shaklida ijodiy matn tuziladi. Bu usul oʻquvchini matnni tushunishga, tasviriy soʻzlardan foydalanishga, mazmunni qayta tuzishga, badiiy detallarni eslab qolishga oʻrgatadi. Bu integratsiya ogʻzaki tasviriy bayon bilan yozma izchil fikrlashni uygʻunlashtiradi.

“Boburnoma” asosida topshiriqlar yaratishda dialoglardan foydalanish juda samaralidir. Asardagi tasvirlar asosida oʻquvchilar dialogik muloqotning tabiiy shaklini oʻrganadilar. Oʻquvchilar avval ogʻzaki tarzda ikki shaxs oʻrtasidagi (Bobur, Humoyun yoki asardagi istalgan tarixiy shaxs) muloqotni jonlantiradi, keyin esa shu dialogni yozma shaklga keltirib, grammatik jihatdan toʻgʻri, izchil, mazmunli suhbat shaklida rasmiylashtiradi. Bu jarayon nutqning ikki koʻrinishini ham birdek kuchaytiradi: ogʻzaki muloqot ravonlashadi, yozma nutq esa normativ jihatdan mustahkamlanadi.

Yana bir samarali integrativ usul – qiyoslash asosidagi topshiriqlardir. Asarda shoirning Andijon, Fargʻona, Xoʻjand, Konibodom, Samarqand, Kobul kabi oʻnlab shaharlar tasvirlari yorqin boʻyoqlarda chizilgan. Shu tasvirlardan foydalanib oʻquvchi asarda tasvirlangan ikki manzil(Samarqand, Andijon, Fargʻona, Kobul, Hirot kabi)ni avval ogʻzaki tarzda taqqoslab beradi, keyin esa shu taqqoslash mazmunini yozma jadval yoki izoh shaklida rasmiylashtiradi. Bu usul tahliliy fikrlashni va nutqning mantiqiyiligini kuchaytiradi.

Oʻquvchilarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiruvchi topshiriqlardan biri shartli ravishda “Doʻstimga maktub” deb nomlanadi. Bunda oʻquvchi oʻzini “Boburnoma”dagi bir qahramon deb tasavvur qiladi (muallif, Humoyun, Badiuzzamon, Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Umarshayx mirzo yoki boshqa obraz). U asar qahramoni bilan uchrashgan payt davomida boshidan kechirgan holatlar haqida doʻstiga yoki oila aʼzosiga maktub yozadi. Maktubda manzil (qayerdan yozilmoqda), asosiy voqealar, his-tuygʻular, xulosa, albatta, boʻlishi kerak. Shu orqali oʻquvchi asardagi tarixiy voqealarning butun shiddati-yu tarixiy obrazlarning faʼel-atvori, tashqi koʻrinishlarini yanada yorqin tasavvur qiladi.

O'quvchining muloqot madaniyatini rivojlantiruvchi topshiriqlardan biri "Muallif bilan suhbat" deb nomlanadi. Bunda o'quvchi o'zini Bobur bilan uchrashgandek tasavvur qiladi va 5–6 ta intervyu savoli tayyorlaydi. Juftliklarda biri "muxbir", ikkinchisi "Bobur" rolida bo'lib, suhbat olib boradi. Keyin suhbatning qisqa yozma konspekti tuziladi.

Misol savollar:

O'n ikki yoshda taxtga o'tirganingizda nimalarni his etdingiz?

Otangiz Umarshayx Mirzo "Xamsa" dostonlarini o'qiganlarida Siz ham tinglar edingizmi?

Lashkaringiz bilan uzoq muddatli yo'llarni bosib o'tgan chog'ingizda duch kelgan qiyinchiliklar haqida gapirib bersangiz?

Agar Andijonga qaytolganingizda qanday ishlarni amalga oshirardingiz?

Bu kabi savollarni tuzgan o'quvchi ham, Bobur bo'lib javob bergan o'quvchi ham muallif qiyofasi, ichki dunyosi, armoni-yu iztiroblarini yana bir marta ko'nglidan o'tkazadi, topshiriqqa to'laligicha ijodiy yondashadi.

Xulosa qilib aytganimizda, "Boburnoma"ni o'qitishda an'anaviy savol-javob usuli bilan cheklanish o'quvchi nutqini chuqur shakllantira olmaydi. Aksincha, maxsus ishlab chiqilgan topshiriqlar o'quvchilarni faol fikrlashga undaydi, ularda mustaqil bayon qilish, badiiy tasviriy matnlar yaratish, nutq madaniyatiga amal qilish, matndan xulosa chiqarish, kommunikativlik va kreativlik kabi zarur ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Адабиётшунослик энциклопедияси (Тузувчи Ҳ.Болтабоев). – Тошкент: Мумтоз сўз, 2015. – 664 б.
2. Бобур. З. М. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1990. – 360 б.
3. Bobur. Z. M. Boburnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – 699 b.
4. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. (табдил). – Т.: Шарқ, 2008. –137 б.
5. Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. – Т.: Шарқ, 2014. – 744 б.
6. Jumaхo'ja N., Adizova I. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Innovatsiya -Ziyo,

2022. - 234 b.

7. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: Innovatsiya -Ziyo, 2020. - 351 b.
8. Eshchonova G. Adabiyot o'qitish metodikasi fanidan amaliy mashg'ulotlar. (Uslubiy qo'llanma) Urganch: 2012. – 56 b.